
SOG'LOM HAYOT SARI BESH MING QADAM

Davlatimiz rahbarining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Toshloq tumanida ham ommaviy sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Bugun tuman markazida erta tongda «Sog'lom hayot uchun 5000 qadam» shiori ostida tuman hokimligi, tibbiyot birlashmasi hamda oila va xotin-qizlar bo'limi hamkorligida yurish marafoni o'tkazildi.

Marafonda yuzga yaqin ko'ngilli ishtirokchilar belgilangan masofani piyoda bosib o'tishdi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi bo'lgan bu kabi tadbirlar aholi orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

2023-03-25 15:26:58